

**ONA TILI O‘QITISH METODIKASIDA TALABALARNING NUTQIY
KOMPITENSIYALARINI RIVOJLANTIRIVCHI O‘QUV
MATERIALLARINING TAHLILI**

Nurmamatova Dilafro‘zxon

Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI Turkiy tillar fakulkteti talabasi

Annotatsiya: Maqoladan ona tili o‘qitish metodikasida talabalarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantiruvchi o'quv materiallarining tahlili sifatida tavsiflash, sharhlash, qayta hikoya qilish usullarining badiiy mutolaa bilan aloqadorligi ochib beriladi. Shuningdek, takroriy ifodalarning qo‘llanilishi ham katta rol o'ynashi haqida mulohazalar mavjud. Audiovizual materiallaridan foydalanish, audiovizual materiallarning nutqiy kompetensiyani oshirishga qaratilgan yo'nalishlarini ifodalashda bugungi kundagi ta'lim tizimiga joriy etilgan metod va tavsiyalarining o'rni va ahamiyati haqida so'z yuritiladi. Gapirish texnologiyasi, tushunish va ifodalash texnologiyasi detallar yoki voqea hodisaga nisbatan ifodalar asosida fikrning o'z aksini topishida yordam beradi. Rasmiy stil va og‘zaki tuzilish uslubining shakllari haqida mulohazalar mavjud.

Kalit so‘zlar: Nutqiy kompetensiya, audiovizual materiallar, tinglab tushunish texnologiyasi, qayta hikoya qilish usuli, tavsiflash, sharhlash.

Ta'lim ishini tashkil etishda ona tili o‘qitish metodikasining ayrim qonuniyatlariga qat’iy rioya qilish lozim chunki o‘quvchilarning yosh xususiyatiga ko‘ra o‘zlashtirish darajasi, mavzuning dolzarbliligi yoki nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan metodik tavsiyalarning samaradorligiga ko‘ra o‘z ifodasini yopadi. Ona tili o‘qitish metodikasida nutqiy kompetensiyalarning metodlar vositasida ko‘rgazmali materiallar, tarqatma materiallar, aktdan foydalangan holatda turli o‘quv materiallarining ta’sir kuchi ham farqli bo‘ladi. Afsuski, nutqiy kompetensiyani rivojlantirishda ko‘plab xatoliklar ham mavjud. Bu hodisa yosh xususiyatining to‘g‘ri inobatga olinmas ekanligi, yetarlicha ko‘rgazmali qurol va materiallar bilan ta’minlanmagan ekanidan yuzaga keladi. Odatda ona tili darslarida og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirishda quyidagi nutqiy kompetensiyaning tarmoqlaridan foydalaniladi. Ular:

- tavsiflash;
- sharhlash;
- qayta hikoya qilish;
- badiiy mutolaa qilish;
- takroriy ifodalardan foydalanish;
- audiovizival materiallardan foydalanish.

“Kompetensiya - u yoki bu soha bo'yicha bilimdonlikdir. Kompetensiya (lot. “compete” - erishyapman, munosibman, loyiqman) - fan bo'yicha egallangan nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni kundalik hayotda duch keladigan amaliy va nazariy masalalarni yechishda foydalanib, amaliyotda qo'llay olishdir”.[1]

O'quvchilarga nutqiy kompetensiyaning ahamiyati va nutqiy salohiyatini oshirish yuzasidan turli xil uslub va vositalardan foydalaniladi. Ularning birinchisi tinglab tushunish. Tinglab tushunish eshitilgan va eshitilgan voqea hodisalarga nisbatan munosabat berish va ularni tinglash vositasida fikrini ifodalashga yordam beradi. Bu ayni og'zaki nutqning rivojlanishida yaxshi ta'sir qilib, o'quvchining munosabat shakllarini ham yuzaga keltiradi. Bunda axborotlar, qisqa matnlar, dolzarb muammolar, badiiy hikoyalar, she'riy asarlarni biror bir parchadan eshitib tushunish va aytib berish orqali nutqiy salohiyatni rivojlantirishga qaratiladi. Nutqiy kompetensiyani rivojlantirishning asosiy sohalaridan biri bu og'zaki nutqning tinglash tushunish qoliplari bilan yuzaga keladi. Ushbu jarayon asosan, mavzuning dolzarbligiga ko'ra yoki umumiyligiga ko'ra eshitilgan, eshittirilgan matnning tarkibi, badiiy ifodasi va undagi haqiqiylik va faktlar bilan ham ishlatilish yuzaga keladi. Ona tili darslarida esa qayta hikoya qilish eshitib tushunish va eshitib belgilash terminlari bilan bog'liq mashq va dasturlar mavjud. “O'quvchilar nutqiy kompetensiyalarining shakllanganligi quyidagi mezonlar orqali namoyon bo'ladi:

- o'qituvchi nutqini, video va audiomatnlarni (multimedia ilovalari) va topshiriqlarni tinglab tushuna oladi;

- rasmlar asosida va o'qib eshittirilgan matn yuzasidan suhbatga kirisha oladi, nutq jarayonida o'zlashtirgan yangi so'zlarni og'zaki nutqda qo'llay oladi;

- mashq matnidagi so'zlarni qo'shib o'qiy oladi, gap ohangiga rioya qilgan holda ravon va ifodali o'qiy oladi, harflar birikmasi ishtirok etgan so'zlarni o'qiy oladi;

- so'zda nechta tovush bo'lsa, shuncha bo'g'in bo'lishini, bir unli tovush bo'g'in hosil qilishini, ya'ni o-na, u-ka, a-ka kabi bo'g'inga bo'la oladi, harflar birikmalari ishtirok etgan so'zlarni bo'g'inga bo'la oladi;

- x va h tovushli so'zlarni to'g'ri yoza oladi;

- bir mavzu doirasidagi savollarga javob yoza oladi;

- mash'al, ma'qul, ta'lim, jur'at, ta'zim kabi tutuq belgili so'zlarni bo'g'inga bo'lib yoza oladi;

- lug'at, izohli, eshituv, yoddan yozuv, rasmlil diktant yoza oladi hamda gaplarni rasmlar tartibida ko'chira oladi”.[2]

Talabalarning nutqiy kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan ikkinchi yo'nalishlardan biri bu gapirish texnologiyasidir. Gapirish texnologiyasida dialog yoki monolog shakldagi nutqning o'zaro shaxsiy va jamoaviy tarzda ifodalanishiga yo'l qo'yiladi. Agar talaba tomonidan shaxsiy nutq, shaklda amalga oshirilayotgan bo'lsa o'zaro dialoglar jamoaviy tarzda amalga oshiriladi. Bu esa sahna asarlari,

teatrlashtirilgan asarlar yoki badiiy matndagi nutqning turli shahobchalardan iborat bo'lishi bilan ahamiyatlidir. Mavzu doirasida taqdimot qilish, taqdimotlarni o'zaro sharhlash, berilgan vazifalarni umumlashtirishda gapirish texnologiyasi katta rol o'ynaydi. Gapirish texnologiyasida og'zaki nusxa rivojlantirishga qaratilgan kirish, undalmalar va gap qurilish shakllarining to'g'ri ifodalanishiga e'tibor qaratiladi. Ya'ni bunda og'zaki nutq doirasida qo'llaniladigan sheva kamchiliklaridan xoli tarzda badiiy nutq uslublariga asoslangan, o'zbek adabiy tili asosida shakllantirilgan nutqning yuzaga kelishini ochib beradi. Bugungi kunda maktab ta'lim tizimida va oliy ta'lim tizimida uyga vazifalarni so'ralish tizimi va qo'shimcha axborot berish tizimlarida og'zaki nutqdan, yanada gapirish texnologiyasidan unumli foydalaniladi. Gapirish texnologiyasi ta'lim tizimida va kundalik hayotimizda farqli bo'lib kundalik hayotimizdagi nutqiy parazitlar, shevaga xos so'zlar bilan biroz qorishgan hollarda ham ifodalanishi mumkin.

“Talaba kasbiy nutq kompetensiyasini takomillashtirish uchun tilni maksimal darajada bilishi, til haqida malakali gapira olishi, tegishli psixologik-pedagogik va uslubiy bilimga, umumiy madaniy tayyorgarlikka ega bo'lishi kerak. Demak, chet tilini o'qitish samaradorligi ko'pgina omillar bilan belgilanadi, ulardan eng muhimi o'qituvchining darsda talabalar bilan muloqot qilish jarayonida o'qitilayotgan tildan foydalana olishidir. Kommunikativ va tarbiyaviy funksiyani amalga oshirishda o'qituvchining nutqi juda katta rol o'ynaydi. Talabalar bir biri bilan o'zaro munosabatda bo'lgan darajada kommunikativ madaniyatga ega bo'lsa, ularning mahorati namoyon bo'ladi. Biroq, amaliyot shuni ko'rsatadiki, talabalarning darsdagi nutq faoliyati hali ham zaif tomon bo'lib, aloqa muammolarini hal qilishda qiyinchiliklarga olib keladi. Ko'rinib turibdiki, bu og'zaki muloqotda yetarli darajada tayyorgarlik ko'rmaslik oqibati. Talaba nutqi haqli ravishda ta'lim jarayonida eng samarali vositalardan biri hisoblanadi. Talabaning, ayniqsa chet tili darslarida mahorati bevosita so'zni bilish darajasiga bog'liq. Bu diksiya va so'z ustida, o'z fikrini aniq ifodalash va ularning to'g'riligini asosli isbotlash ustida doimiy va maqsadli ishlashni talab qiladi. Yuqorida aytilganlarning barchasi talabalarni darsda muloqot qilish ko'nikmalariga maqsadli ravishda o'rgatishda qanday rol o'ynash kerakligini belgilaydi”.[3]

Xulosa sifatida aytish kerakki, nutqiy kompetensiyani rivojlantirishda o'qish texnologiyasiga aloqador shaklda mavzuga oid materiallari yoki adabiy-badiiy matnlarning uslubiy shakllangan tarzda ko'rinishidan soddaroq bo'lgan matnlarning toifalarini o'qish nazarda tutiladi. Bunda, ommabop materiallar bo'lmish gazeta jurnallarning talaba-yoshlar yoshi va saviyasiga xos bo'lgan materiallar bilan ishlash yuzaga keladi. Shuningdek, talabalarga tayyorlanish uchun vaqt berilishi va ular belgilangan vaqtda o'z fikrlarini ifoda etishda yoki o'qib berish shakllardan foydalanish mumkin. “Turli xil maktub shakldagi matnlar yoki hikoyalari sherigi asarlar mana shu

jarayonda katta rol o'ynaydi Uning o'quvchilar nutqini oshirishda video film va audio matnlari tinglash yoki ularning tarkibiy qismlarida kelgan o'quv materiallari bilan shug'ullanish lozim".[4] Unda lug'atlar bilan ishlashish yoki mavzu doirasiga oid bo'lgan fikr va mulohazalarning qo'shimchalar bilan ishlashish yoki o'quvchilarni o'qib berishida o'ziga xoslik lozim bo'ladi. Talabalar tomonidan tomonidan yoki tinglashlari tomonidan o'rnak bo'ladigan talaffuz shakllari ham yuzaga keladi, ayni ushbu tizimli yechim o'quvchilar kompetensiyasi rivojlantirishda yozish texnologiyasi ham yuzaga keladi. Aksariyat insonlar nutqiy kompyutersiyasining bir tomonlari rivojlanishi yoki yozish yoki o'qish texnologiyasi bilan amalga oshiriladi. Rasmiy ish qog'ozlarni yozilishida biroz farq bo'lgani uchun aksariyat hollarda badiiy matnlar beriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Temirova K.S. Boshlang'ich sinf o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini shakllantirish. "Pedagogik mahorat" // ilmiy-nazariy va metodik jurnal, № 6/2022.
2. Temirova K.S. Nutqiy kompetensiyaning turlari, mazmun-mohiyati va elementlari. "International Conference on Developments in Education" 20.02.2023
3. Irgasheva Umida Raimjonovna "Talabalar kasbiy nutq kompetensiyasini takomillash tirishning pedagogik aspektlari" maqola. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences - 2022
4. Qorayev S.B., Tirkashev N.I. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'limning asosiy jihatlari. "Academic Research in Educational Sciences", Volume 3/ISSUE 1/2022.